

O'ZBEK TILIDA TOBEDOSHLIK ALOQASI

SH.Mahsutaliyeva,

Qo'qon davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tili materiallari asosida tobedoshlik aloqasining nutqiy xususiyatlari lug'aviy-sintaktik birliklar vositasida tadqiq etiladi.

Annotation: In this article, on the materials of the Uzbek language, the speech features of subordination are studied through lexical and syntactic units.

Tayaynch so'z va iboralar: tobe aloqa, lug'aviy birlik, sintaktik birlik, qolip, matn, grammatik shakl.

Key words and phrases: subordinating relation, lexical unit, syntactic unit, sample, text, grammatical form.

O'zbek tilida tobedoshlik aloqasi tilning sintaktik va nosintaktik sathlari hodisalarini hosil qilish imkoniyatlariga ega ekanligi bilan ham alohida lisoniy ahamiyat kasb etadi¹. Tobedoshlik aloqasi qo'shma so'zlardan tashqari, qo'shma so'zlar bilan so'z birikmalari oralig'ida amal qiluvchi lug'aviy-sintaktik butunlik qismlarini ham biriktiradi². Bunday lug'aviy-sintaktik butunliklar xilma-xil bo'lib, ularning ayrimlariga va ular qismlarining bog'lanishiga e'tibor beramiz.

Tobedoshlik aloqasi *-lar* qo'shimchali so'z bilan tarkibida III shaxs egalik qo'shimchasi mavjud bo'lgan so'z (ot)larning birikuvida ham ko'zga tashlanadi. Bunday birikuvlar leksikalizaqiga jarayonini boshdan kechirayotgan hodisalar sirasiga kiradi. Masalan: *qariyalar uyi, faxriylar taxtasi, talabalar shaharchasi, ayollar uyushmasi, bolalar bog'chasi* singari misollarda ana shu holat mavjud. Bunday butunliklar aslida "ot+ning – ot+egalik qo'shimchasi" qolipiga mos kelsada, hozirgi vaqtida birikmaning birinchi qismi tarkibiga *-ning* qo'shimchasini tirkash mumkin bo'lmaydi, butunlikning lisoniy qiymatiga putur etadi. Ayniqsa, *bolalarning bog'chasi, faxriylarning taxtasi, qariyalarning uyi* shakllarida ishlatish uslub jihatdan noqlay. SHu tarkibda ma'lum bir tushunchaning nomiga aylangan

¹Yigitaliyev U.S. The semantics of Affirmative-Negative Sentences in the Uzbek Language and the Expression "Personality" in it. // EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION (EJINE)/ ISSN 2795-8612/ Volume 2 № 4 (Apr 2022).

² <http://innovatus.es/index.php/ejine/article/view/651>

bunday butunlikda egalik qo'shimchasi bilan shakllangan ikkinchi komponent ko'plik affiksi bilan shakllangan birinchi komponentga tortiladi, tobelanadi³. Ko'plik shaklidagi birinchi komponent ham, ayni o'rinda III shaxs egalik shaklidagi ikkinchi qism tomonidan boshqariladi: tobelikning ikki tomonlama yo'nalishi amalda bo'ladi. Ikki tomonlama yo'nalishi tobe aloqa amalda bo'lganligi uchun ham, *qariyalar uyi* ko'rinishadigi butunliklarni *qariya uyi* shakliga kiritib bo'lmaydi – butunlikning lisoniy maqomi barham topadi.

Demak, tobedoshlik aloqasi "ko'plik shaklidagi ot + III shaxs egalik qo'shimchasi shaklidagi ot" qolipidagi butunliklar qismlari uchun ham xosga o'xshaydi. *Tinchlik shartnomasi, qizlik nomusi, ayollar nazokati, keksalik gashti* singari butunlik qismlarining birikuvi, bizningcha, tobedoshlikka asoslangan. CHunki bunday birikuvlarda ham qismlararo qarama-qarshi yo'nalgan tobelik mavjud. *-lar* grammatik shaklli butunliklarda bo'lgani kabi, bunday butunlik qismlari ham birinchidan, biri boshqasini ana shunday shaklda taqozo etadi; ikkinchidan, qismlararo o'zaro tortilish (grammatik jihatdan) mavjud bo'ladi. *Qiz nomusi, ayollar nazokati, farzand burchi* (bularda qaratqich ham bor) tarzida ishlatish mumkin bo'lsa-da, *tinchlik shartnomasi, keksalik gashti, yoshlik g'ururi* singari butunliklarni *-lik* qo'shimchasisiz *tinch... shartnomasi, keksa... gashti, yosh... g'ururi* shakllariga kiritib bo'lmaydi – butunlik qismlararo sintaktik aloqa (tobedoshlik) barham topadi. *Qizlik nomusi – qiz nomusi, ayollar nazokati –ayol nazokati* kabi transform variantlarning mumkin emasligining sababi shuki, *-lik* grammatik shaklli komponent o'zak qismi ot turkumiga mansub bo'lsa, ularni "*-lik*" siz shaklda transform qilish mumkin; *-lik* grammatik shaklli qismning o'zak shakli otdan boshqa turkumga mansub bo'lsa, (masalan, sifat: *yosh, keksa*) bunday holatda *-lik* qo'shimchali birikmani "*-lik*" siz shakldagi variantga aylantirish mumkin bo'lmaydi.

Bundan tashqari, tobedoshlik aloqasi nosintaktik sathda takrorlangan lug'aviy birliklarda ancha faoldir⁴. Masalan: *toshdan toshga, o'tdan-suvga,*

³ <https://www.woconf.com/index.php/arims/article/view/33>

⁴ Yigitaliev Umidjon. O'zbek tilida "shaxs" lisoniy zarrasining semantik-sintaktik qurilmalarda ifodalanishi. Jurnal: ILM SARCHASHMALARI, 2022. //8-son. -B. 24-27.

balodan-qazoga, eldan-elga, ko 'ngil-ko 'ngilga singari bir qator juft va takroriy so‘zlarning qismlararo tobedoshlik aloqasi mavjud. Bunday lug‘aviy butunliklar tarkibi qismlararo tobedoshlik o‘ziga xos ifoda vositalariga ega. Ana shunday ifoda vositalari va ularning joylashish o‘rniga ko‘ra, tobedoshlik aloqasining o‘ziga xos bir qancha ko‘rinishlari mavjud. Ular quyidagilardir:

1. Prepozitiv qismi chiqish kelishigi, postpozitiv qismi jo‘nalish kelishigi shaklidagi qismlarni biriktiradi: *toshdan-toshga, kundan-kunga, yildan-yilga, eldan-elga*.
2. Prepozitiv qismi tushum kelishigi, postpozitiv qismi jo‘nalish kelishigi shaklidagi qismlarni bog‘laydi: *moddasini-moddasiga, urug ‘ini-urug ‘iga, ko ‘zini-ko ‘ziga, o ‘zini-o ‘ziga*.
3. Prepozitiv qismi chiqish kelishigi, postpozitiv qismi bosh kelishik shaklidagi komponentlarni biriktiradi: *gapdan-gapga, eldan-elga, yildan-yil, yaxshidan-yaxshi, qissadan-hissa* va hokazo.
4. Prepozitiv qismi jo‘nalish, postpozitiv qismi bosh kelishik shaklidagi komponentlarni bog‘laydi: *unumga-unum, boshga-bosh, jonga-jon, gapga-gap, unga-un*.
5. Prepozitiv qismi bosh kelishigi, postpozitiv qismi jo‘nalish kelishigi shaklidagi komponentlarni biriktiradi: *ko ‘ngildan-ko ‘ngilga, gapdan-gapga, bo ‘y-bo ‘yga, to ‘y-to ‘yga*.
6. Prepozitiv qismi **-niki** grammatik shaklli, postpozitiv qismi jo‘nalish kelishigi shaklidagi qismlarni bog‘laydi: *birniki-mingga, yaxshiniki-yomonga, elniki-elga, to ‘yniki-to ‘yga*.
7. Prepozitiv qismi tarkibida **-ma** elementi mavjud bo‘lgan va postpozitiv qismi bosh kelishik shaklidagi komponentlar ham tobedoshlik yordamida birikadi: *ko ‘chama-ko ‘cha, uyma-uy, yurtma-yurt, navbatma-navbat, qo ‘lma-qo ‘l* kabi.

Tobedoshlik aloqasi va uning lisoniy tabiatи tufayli turkiy tilshunoslikda an’anaviy talqin aksiomaga aylangan ba’zi holatlar nuqtai nazaridan inkor etiladi. Xususan, turkiy tillar sintaktik qurilishida keng “aniqlovchi va aniqlanmish” tartibi

barcha sintaktik qurilmalar uchun qonuniy deb hisoblanadi⁵. Har qanday so‘z birikmasi “tobe qism+hokim qism” qolipida hosil bo‘ladi qabilidagi talqin hukmronlik qiladi.

Bizningcha, bunday qarashlar, talqinlar nisbiy. Buni quyidagi misollarda ko‘rishi mumkin. YA’ni: *SHunday o‘lka borki, u erlarda chayon bo‘lmaydi* (Beruniy). *Hayot uni talab qiladiki, har bir narsa harakatda, rivojlanishda bo‘lsin* kabi ergash gapli qo‘shma gaplar ham sintaktik qurilmalarga kiradi. Bular nutqiy ashyolarning “hokim qism (*bosh gap*) tobe qism (*ergash gap*)” qolipida voqelanuvchi sintaktik hodisalardan mingdan bir ko‘rinishi.

Demak, ma’lum bo‘ladiki, turkiy tillar, shu jumladan, o‘zbek tili sintaktik butunliklari ham doimo qismlararo “hokim+tobelik” yoki keng ma’nodagi “aniqlovchi+aniqlanmish”lik sintaktik qurilishining qolipida bo‘lmay, balki ma’lum bir nutqiy ko‘rinishlardagina muayyanlashadi, xolos.

.

⁵ Yigitaliyev U. Grammatik shakllar paradigmasi va unda "shaxs" lingvistik zarrasining ifodalanishi. Qo‘qon DPI ILMIY XABARLAR, 2022-yil, 2-son. –B. 104-107.